

TONG YULDUZI

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

www.tongyulduzi.uz

2011-yil
13-iyun
N:23-24
(66824-25)

ISSN - 2010-6092



**Ustoz,
sizdan minnatdormiz!**

«Zulfiya» nomidagi
Davlat mukofoti sohibalari

Yulduz



Jizzax Davlat pedagogika instituti qoshidagi 2-akademik litseyning 2-bosqich o'quvchisi Yulduz Zoyirovani jizzaxlik yoshlar juda yaxshi tanishadi. Chunki u viloyat televideniyesining «Nihol», «Kitob javoni» ko'rsatuvlariga boshlovchilik hamda viloyat radiosining «Bolalar sahifasi» eshittirishiga mualliflik qiladi.

Litseydagi saboqlari, ko'rsatuv va eshittirishlaridan bo'shadi deguncha, adabiyotning sirli olamiga «singib ketadi». She'rlari «Turkiston», «Yosh kuch», «Tong yulduzi», «Gulxan», «Jizzax haqiqati» kabi nashrlarda chop etib kelinayotgan iqtidorli qizimiz havas qilsa arziguulik yutuqlarni qo'lga kiritdi. 2008-yili viloyat miqyosida o'tkazilgan «Iqtidorli bolalar» anjumanida «Yosh qalamkash» yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni egallab, ustozlari ishonchini oqladi. 2009-yili viloyat «Kamolot» YOIHning «Kamolot»ning dastur va vazifalarini amalga oshirishdagi faolligi uchun» Diplomi sohibi bo'ldi.

O'tgan 2010-yilimiz ham Yulduzxon uchun omadli bo'ldi. O'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan «Navro'z va qadriyatlar» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida 2-o'rinni egalladi. «O'rik guli» nomli she'riy to'plami ham shu yili bosmadan chiqdi.

Mustaqilligimizning 19 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan «Eng ulug', eng aziz» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida she'riyat yo'nalishi g'olibi bo'lgani uning eng katta yutug'i bo'ldi.

Ko'chalardan o'tayotganda, kuzatib boraman: qaysi joyda ozodalik, saranjom-sarishtalik bo'lsa, o'sha yerlardagi beton yo'laklar, tosh to'siqlar, hatto ulkan binolar ham yashnab, ochilib turadi. Demak, inson tabiatga mehr bersa, undan o'zi ham manfaat ko'radi.

Bir ahamiyatli voqeani eslab o'tish joiz:
1991-yil 4-sentabr, ya'ni mustaqillikning to'rtinchi kunida Prezident Islom Karimov O'zbekiston Milliy bog'ida qad rostlayotgan Alisher Navoiy haykalini va

Bunday inson dunyoning o'tkinchiligi doimo nazarida tutib ish ko'radi, kamtar, kamsuqum yashashga intiladi. Birovning haqi uning uchun harom. Boylik esa orzusi emas, balki yashash uchun ehtiyoj, xolos. Bilgani Vatan, xalq saodati. Shu bois ham u hech ikkilanmay kuch-qudratini shu yo'lda sarf etadi, ezigulik va dunyoning kelajagi uchun kurashadi, bu yo'lda, kerak bo'lsa, sog'lig'ini ham ayamaydi.

Davlat ham xuddi shunday. Uning asosi buyuklikka qurilar ekan, bunday davlatda, eng avvalo, insoniy qadriyat qimmat qaror topadi. Bugun jonajon yurtimiz ham shunday ezgu an'analar asosida rivojlanmoqda. Birgina misol keltiradigan bo'lsak, bizda maktab ta'limi 7 tilda olib borilmoqda.

**Hunarni asrabon netkumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdur oxir.
Alisher NAVOIY**

Quvonch bilan aytish kerakki, bag'rikenglik xalqimizning qonida bor. Uning bag'riga hamma sig'adi. Biz mana shu jihatimiz bilan faxrlanamiz, quvonamiz. Qolaversa, bu ham buyuklikning bir ko'rinishi ekanligini chuqur his etamiz.

BUNYODKOR



XALQ

Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish demakdir. Prezidentimiz ma'ruzalaridan xohlaganingizni olib ko'ring, unda siz yosh avlodga g'amxo'rlik ko'rsatish eng muhim vazifa ekanligi qayta-qayta ta'kidlangan.

FARZANDLARISIZ

bog'da olib borilayotgan qurilish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Demak, O'zbekiston ilk qadamini bunyodkorlikdan va ulug'lar ruhini shod etishdan boshladi.

Bizda: «O'zbek boyisa, imorat quradi», degan yaxshi maqol bor.

Uning yana bir ibratli fe'l-atvori barchaga ayon: u yerni, tabiatni sevadi. Do'ppisida suv tashib bo'lsa-da, daraxt ko'kartiradi. Bu nimani bildiradi? Tom ma'noda o'zbekning chin insoniyligi va buyukligi ham shunda desak, mubolag'a bo'lmas.

Yurtboshimiz ham ana shu an'analarga sodiq holda xalqining kimligini jahonga ko'rsatishga oshiqdi. «Bunyodkor xalq buzmaydi, quradi, yaratadi, borlari yoniga yangilarini tiklaydi».

Siz ana shunday ezigusevar xalqning farzandlarisiz. Shunday xalq bilan har qancha faxrlansangiz arziydi. Bunday xalq bilan buyuk kelajakni yaratishga ishonish mumkin. Prezidentimiz tanti, vazmin, mehnatkash va to'g'riso'z xalqimizning ana shu e'tiqodiga ishongan va suyangan holda «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» ekanligini baralla e'lon qiladi.

Ana endi «buyuk» so'ziga urg'u berib ko'raylik. Buyuk, buyuklik osmondagi oy degani emas. Yoki hammadan ustun inson ham emas. Xalqimiz: «Buyuklik – soddalikda» deydi, ammo dunyoda sodda bo'lishdan qiyini yo'q. «Sodda» so'zi tiriklikning mohiyatiga yetgan, dunyoni tushungan kishi ma'nosida kelyapti.

Mustaqil davlatimizning ilk yuksak nishoni ham «Sog'lom avlod uchun» ordeni bo'ldi. Davlatimizning birinchi yuksak nishoni inson taqdirini-yu va albatta, ulug' maqsadlarni ko'zlab ta'sis etilganini alohida e'tirof etish joiz. Chunki hech bir narsa o'z-o'zidan yarmaydi. Kelajagi buyuk davlat, albatta, birinchi o'rinda bo'lajak fuqarolari taqdirini, ularning ma'naviy darajasi, ma'lumoti haqida g'amxo'rlik qiladi. Qisqa davr ichida mamlakatimizda siz yosh avlodni tarbiyalash borasida aniq rejalar ishlab chiqilgani va sog'lom o'sib, to'g'ri tarbiya topishingiz, ilmi, odobli insonlar bo'lib kamol topishingiz uchun barcha sharoit va imkoniyatlarning muhayyo qilingani diqqatga sazovordir, albatta. Bugun ko'ring: buyuk kelajak sohiblari xalqaro olimpiadalarda, turli sport musobaqalarida o'z yurti sha'nini munosib himoya qilib, g'oliblik nashidasini surishmoqda. Tahririyatimizga kelayotgan o'smirlar bilan suhbatlashar ekanman, o'z mustaqil fikriga ega yangi avlod shakllanayotganini ko'rib, behad quvonaman. Ularning har birida Vatan tuyg'usi, g'ururi, quvonchi mujassam. «Men ham tengdoshlarim qatori shu ozod yurtimning ravnaqiga hissamni qo'shsam», deydi ularning har biri. Buyuklikni kim yaratadi? Siz, bilimli, salohiyatli, oqil, dono o'g'il-qizlar emasmiz?!

O'zbekistonning ishonchi bo'lgan yangi avlodning ana shunday buyuklikni yaratishi bugundan ko'zga tashlanayotgan ekan, ayni zamonda iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning kamoloti yo'lida fidoyilik

qilish – yuksak ma'naviyat belgisi, har birimiz uchun dolzarb vazifadir.

Prezidentimiz o'zlarining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida bu to'g'rida aniq, lo'nda aytib o'tgan:

«Vatan ravnaqi, avvalo, uning farzandlariga, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bevosita bog'liq. Bu, o'z navbatida, har bir yurtdoshimizni zimmasidagi yuksak fuqarolik mas'uliyatini his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi. Va har qaysi fuqaro o'z mamlakatining xalqaro hamjamiyat safidan o'rin olishi, taraqqiy topgan davlatlar qatoriga ko'tarilishidan manfaatdor bo'lishi shubhasiz».

Sakson yoshni qarshilayotgan bo'lik Sayyidikrom ota Mahmudov: «Qarigan chog'ida ortiga qarab, mendan yaxshi nom, solih farzandlar, obod bog'-rog'lar qolyapti», deya olgan insondan baxtli kishi bo'lmaydi, dedilar. Ertaga buyuk kelajak yaratgan avlodga ham shunday saodat yor bo'lishiga nima yetsin?!

– Bugungi yoshlarga juda o'tavasim keladi, – deydi surxondaryolik yetmish yoshli otaxon, filologiya fanlari nomzodi, folklorshunos olim Toshtemir Turdiyev. – Buni qarang, qanday yaxshi zamon keldi, bu buyuk o'zgarishlarni ko'rib, yana yigirma yoshli o'spirin bo'lgini va yeng shimarib ishlaging keladi. Eng muhimi, yoshlarimiz ana shularni tushunsin va o'zlarining ertasi uchun bu imkoniyatlardan foydalanib qolsinlar, deyman.

«Vatan sendan buyuk ishlarni kutadi!»

Bu barkamol avlod, bugungi yoshlar uchun chinakam, eng ezgu shior. Ulug' yurt, shu aziz makon, muqaddas zamin bugungi gurkiran hayot bilan hamnafas bo'lib, buyuk kelajak sari dadil odimlayotgan o'g'il-qizlarining shijoatiga va ertasiga ishonadi.

O'quv yili tugab, yozgi dam olish pallasi ham boshlanib ketdi. Sen bilan biroz suhbatlashib ham oldik, o'smir. Yoz uch oy, xolos. «Vaqtning ketdi – naqdning ketdi», deydi xalqimiz. Sening vaqtning behuda sarf bo'lmasin, deymiz.

«Tong yulduzi» sen bilan hamisha birga. Uch oy yoz davomida ham u sen bilan muloqot olib boradi, taassurotlaringni tengdoshlaringga yetkazishga imkon beradi.

Yigirma yoshga to'lgan o'quvchim!

Senga havas bilan qaraymiz. Qadaming yanada dadil bo'lsin, barchamiz shu aziz Vatanga kerakmiz. «Men uning mard, jasur, ilmi va dono farzandi bo'laman», degan ezgu niyat bilan olg'a qadam tashlayver! Shunday xalqqa munosib farzand bo'lish senga juda yarashadi!

To'liq HAYIT

● Aziz o'quvchilar, har kuni 6.40 da havo mavjlari orqali yangraydigan bolalar va o'smirlar eshittirishlarini maroq bilan tinglab borasiz-a?
● Uni tayyorlaydigan jurnalist aka va opalaringiz, boshlovchilik qiladigan tengdoshlaringiz bilan yaqindan tanishish barchangiz uchun qiziqarli bo'lsa kerak.

● Keling, eshittirishlar haqida, yaxshisi, ularning o'zlaridan eshitaylik:

● «O'zbekiston» radiokanalida bolalar va o'smirlar eshittirishlarining o'z o'zini, tarixi bor. Bolalar radiojurnalistlari, ustozlarimiz Nasiba opa Ziyovuddinova va Muattar opa Usmonovalarning aytishlaricha, «O'zbekiston» radiokanali orqali bolalar ovozi qariyb 65 yildan buyon yangrab keladi. Hozirda «Kelajak tongi» va «O'smir» eshittirishlarining yosh muxbirlari soni 40 nafarga yaqin.

● O'zbekiston teleradiokanalining «Bolalar va o'smirlar» bo'limi har kuni biz kabi yosh muxbirlar bilan gavjum bo'ladi. «Kelajak tongi»ni yozib olishda muharrir va rejissorlar sabog'i o'ziga xos «Mahorat maktabi»dir. Tanlab olish jarayonida studiya mikrofoniga «ovozimiz



Yozgi ta'til davrida bolajonlarning ko'ngildagidek hordiq chiqarishlari yil davomida o'zlarini tetik va bardam his etishlari, qolaversa, yangi o'quv yilida bilimlarni puxta o'zlashtirishlarini ta'minlaydi.

Bu borada O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashida qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Bugungi suhbatimiz ana shu haqda.



Muhabbat O'RMONBEKOVA,
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi matbuot xizmati rahbari:

- Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida 250 mingdan ziyod o'g'il-qiz dam oladi. Jami 817 ta bolalar sog'lomlashtirish oromgohining 221 tasi shahardan tashqari statsionar turidagi, 596 tasi kunduzgi oromgohlardir. Ushbu maskanlarni moddiy-texnika negizini mustahkamlash borasida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Xususan, uyushma tomonidan Toshkent viloyatidagi «Quyoshli», Andijon viloyatidagi «Bog'ishamol» bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida katta qurilish ishlari bajarildi.

Bu yil Orolbo'yidan to'rt ming nafar o'g'il-qiz Toshkent shahri va viloyatidagi oromgohlardagina emas, balki Samarqand, Jizzax viloyatlaridagi so'lim oromgohlarda imtiyozli ravishda sog'lomlashtiriladi. Shuningdek, mavsumda «Mehribonlik uy»lari

tarbiyalanuvchilari, kam ta'minlangan, ko'p bolali oila farzandlariga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Yana bir yangilik: «Quyoshli» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi negizida

intellektual oromgoh tashkil etilib, Respublikamizning turli hududlarida bilimlar tanlovi g'oliblari bo'lgan iqtidorli o'quvchilar imtiyozli sog'lomlashtiriladi.

Shuningdek, kunduzgi oromgohlar faoliyatini yanada jonlantirishga alohida e'tibor qaratildi. O'tgan yilgilaridan farqli o'laroq barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan eng yaxshi binolardagina kunduzgi oromgohlar tashkil etildi.

Ayni paytda 528 ta oromgoh faoliyati boshlanib, 58 ming nafarga yaqin bola mavsumning birinchi navbatida sog'lomlashtirilmoqda. Poytaxtimizdagi «Gulbahor» nomli bolalar sog'lomlashtirish oromgohida 220 nafardan ziyod qoraqalpog'istonlik o'g'il-qizlar dam olishni boshlab yuborishdi.

Yozgi sog'lomlashtirish mavsumi nihoyatda mas'uliyatli davr. Bu davrda bolajonlarni nafaqat sog'lomlashtirish, balki ma'naviyatini yuksaltirish, tafakkurini boyitish ishlariga ham katta ahamiyat beriladi.

Feruza ADILOVA yozib oldi

Kuni kecha gazeta-mizda e'lon qilingan «Qushlar – bizning do'stlarimiz» nomli tanlovga bag'ishlangan bolalar ijodiy rasmlari respublika tanlovi o'tkazildi. «O'zbekiston poch-tasi» OAJ, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi va O'zbekiston qushlari himoya qilish jamiyati bilan hamkorlikda o'tkazilgan mazkur tadbirda ko'plab bolajonlar o'z ijodiy ishlari bilan qatnashdilar. O'quvchilar tomonidan 1383 ta rasmlar taqdim etildi va g'oliblar aniqlandi. «O'zbekiston poch-tasi» OAJ g'oliblar ishlari asosida «Qushlar – bizning do'stlarimiz» nomli maxsus pochta markalarini tayyorladi va O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tomonidan ushbu markalar nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyo bo'ylab tarqala boshladi.



QUSHLAR BAYRAMI



tanlov natijalariga ko'ra, 1-o'rin Toshkent viloyatidan 9 yoshli Behzod Akbaraliyevga «Cho'l qushi», 2-o'rin Toshkent shahridan 11 yoshli Yekaterina Melyukovaga «Sassiqpopishak», 3-o'rin Toshkent shahridan 10 yoshli Adelya Sharapovaga «Qirg'ovul» nomli ijodiy ishlari uchun berildi. G'oliblar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar. Qolgan ishtirokchilarga ham rag'batlantiruvchi sovg'alar topshirildi.

ZUHRA va ZUBAYDA



rejissori Shomahmud Shorasulov, suxandon Surayyo Ermatova, aktyor Akbar Rasulov, «O'zbekiston» radiokanalining umidli boshlovchilari Umida Mahkamova, Sevara Abdusalomova, Dilnoza Toshmuhamedova, Alijon Qosimovlar ham «O'smir»da «chiniqqan»lardan.

Har kuni efirga uzatiladigan «Kelajak tongi» va «O'smir» eshittirishlarini tayyorlovchi muharrirlarimiz Muattar Usmonova (bo'lim rahbari),

Dono Zohidova, Halima Mahamadsaidova, Yulduz Karimova, Saida Zokirova, Nazokat Toshqulova, Shokir Siddiqov va Jamshid Rasulov ustozlarimizdir.

Ular har birimizning qiziqish va intilishlarimiz, fikrlarimizni inobatga olishadi.

Litsey va kollej o'quvchilari uchun mo'ljallangan to'g'ridan-to'g'ri efirga

uzatiladigan «O'smir» eshittirishini olib boradigan Aziza Sultonova, Shahnoza Akramova, Muslima Abduqayumova, Sardor Tursunov va Davron Hoshimov kabi boshlovchilarning ham o'ziga xos muvaffaqiyati bor. Masalan, Aziza «Siz qonunni bilasizmi?» tanlovining shahar bosqichi g'oliblaridan, Sardor va Davronlar esa Glier nomli respublika ixtisoslashtirilgan maxsus akademik litseyning skripka yo'nalishida tahsil olishadi. Ular Italiya, Fransiya, Monako va Gretsiyada «Yosh qobiliyat» nomli xalqaro tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishgan.

«Bolalar va biz», «Yo'l boshida adashganlar» eshittirishlarida beriladigan mavzular odamni o'ylantirib qo'yadi.

«O'zbekiston» radiokanalining «Bolalar va o'smirlar» bo'limida yana bir yaxshi an'ana bor: u ham bo'lsa, respublika o'quvchilari o'rtasida ijodiy ishlar radio-tanlovini tashkil etish. Hamkor vazirliklar

bilan birga o'tgan yili o'tkazilgan «Salomatlik garovi» nomli tanlov bolalar o'rtasida to'g'ri ovqatlanishni tashkil etishga qaratilgan edi. Kamqonlik va yod yetishmasligini oldini olish mazkur tanlovning bosh maqsadi bo'lgan.

O'tgan yil «Bolalar va o'smirlar» bo'limi uchun o'ziga xos muvaffaqiyatlar yili bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Tinib-tinchimas muharrir ustozlarimizdan Muattar opa Usmonova 2-darajali «Sog'lom avlod» ordeni bilan taqdirlandilar. Jurnalist opamiz Saida Zokirova bolalar uchun tayyorlagan turkum eshittirishlari uchun «Oltin qalam» milliy mukofotiga sazovor bo'ldilar.

Biz ularga juda havas qilamiz va izlaridan borishga intilamiz. Maqsadimiz ulkan, buni eshittirishlarimizni tinglash davomida anglashingiz mumkin.

Sayyora ZIYOTOVA,
yosh muxbir

tushishi» bir yutug'imiz. Eshittirish davomida har bir so'z talaffuzi ustida ishlab, fikrlab borishimiz lozim. Keyinchalik esa «O'smir» eshittirishini to'g'ridan-to'g'ri, ochiq efrida olib borish mahoratiga erishish juda katta imkoniyat. Shu jarayonda o'z ijodini «charxlay olgan» yosh muxbirlar hozir ko'pchilikka tanish. Masalan, dublyaj



DAVRA SUHBATIDA

YOSHLAR MAVZUSI



Yaqinda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi hammuassisligidagi nashrlarning Bosh muharrirlari va xodimlari bilan davra suhbatini bo'lib o'tdi.

Ma'lumki, bugungi kunda 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 2,5

milliondan ortiq bolalarni

birlashtirgan Respublika

«Kamalak» bolalar tashkiloti ko'plab loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.

Davra suhbatida «Tong yulduzi» gazetasida

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati

«Kamalak» bolalar tashkilotining faoliyati atroflicha yoritib borilayotgani alohida ta'kidlandi.



– Sarlavha ham yarim maqola, – deya so'z oldi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davroni bosh konsultanti Minhojiddin Mirzo. – «Tong yulduzi» gazetasidagi o'ziga xos sarlavhalar o'quvchi e'tiborini tortadi. Biroq, sardorlar, yetakchilar haqida kengroq ma'lumotlar berish, kichik hikoyalar, qissalar yozish vaqti keldi.

Bugungi O'zbekiston yoshlarining iste'dod va zehniga jahon tan bermoqda. Ana shunday yoshlarni to'plash, ularni o'quvchilar ommasiga yanada yaqinroq tanishtirish kerak. Buning uchun esa viloyatlarda jamoatchi muxbirlarni tayyorlash lozim.

– «Tong yulduzi» gazetasi bilan hamkorligimiz yaxshi yo'lga qo'yilgan, – deydi Xalq ta'limi vazirligining matbuot markazi rahbari Jahongir Musayev. – «Barkamol avlod» yili munosabati bilan gazetada har bir viloyatga bag'ishlangan maxsus sonlar chop etildi. Unda viloyat xalq ta'limi boshqarmasida olib borilayotgan ishlar, sardorlar faoliyati

keng yoritildi. O'ylaymanki, bu kabi hamjihatlik, albatta o'z samarasini beradi.

– «Kamolot» YOTH faoliyati «Tong yulduzi» gazetasida keng yoritilishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati bilan hamkorlikda «Yoshlarga oid qonunchilik yoshlar nigohida» mavzusida o'tkazilgan davra suhbatini «Tong yulduzi» gazetasidagina yoritildi, – deydi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi raisining birinchi o'rinbosari Feruza Muhamedjanova.

Bolalar nashrlarining asosiy o'quvchilari «Kamalak»chilar ekan, demak, bizning zimmamizda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdek eng dolzarb, eng ulkan muqaddas vazifa mas'uliyati turibdi.

Feruza SOYIBJON qizi

HAMISHA T A'ZIM D A M A N BOLA KULSA - OLAM KULAR

Qarshi shahridagi 21-umumta'lim maktabida o'quvchilarga kimyo fanidan saboq berib kelmoqdaman.

Faoliyatimning dastlabki kunlaridan bu kasbning naqadar murakkab, mashaqqatli ekanligini his eta boshladim.

Xayolimni: «Nahotki uddalay olmasam?» degan savol band etgan chog'lar ham bo'ldi. O'sha kezlarga menga tirgak bo'lgan, kamchiliklarimni tuzatishda, o'zimga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda yordam bergan maktabimiz jamoasidan juda minnatdorman.

Jumladan, birinchi ustozim, maktabimiz rahbari Samad Ahadov domlaning nomlarini alohida mehr bilan tilga olmoqchiman.

Ilm izlash yo'lida hech charchamaslik xislatini tarbiyalagan bu buyuk qalb sohibi qarshisida hamisha ta'zimdaman.

Lobar ERGASHEVA,
Qashqadaryo viloyati

Dunyoda bola kulgusidan zavqlanmagan inson topilmasa kerak. Chunki ularning kulgulari ham o'zlari kabi sof va beg'ubor.

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyida Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda yuzlab bolajonlarning shodon chehralariga qarab bizning ham zavqimiz oshdi. Mazkur korxonada matbaachilarning farzandlari uchun bayramlar uyushtirish yaxshi an'anaga aylangan. Bu galgi bayram «Yog'du» teatr studiyasi aktyorlari ishtirokida o'tkazilishi bolajonlarga olam-olam quvonch bag'ishladi. Xo'ja Nasriddin, Boqivoy, Soqivoy, Shahrizoda, O'rgimchak odam, Ko'rshapalak kabi ertak qahramonlari davradagilar bilan turli o'yinlar o'ynab, bayramning yanada fayzli o'tishiga hissa qo'shdilar.



Fayzullo DO'ST.

Surat muallifi: Zuhra MUHSIMOVA

Yunusobod tumanida joylashgan maktab, litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari orasidan saralangan yosh iqtidorlar O'zbekiston tarixi davlat muzeyiga sayohatga borib, yurtimiz tarixiga oid ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldilar. So'ng esa she'rniyat kechasida o'zaro bellashdilar.

SATRLARDA VATAN MADHI

Kechada turli soha vakillari ham ishtirok etib, bugungi kunda mamlakatimizda erishilayotgan yutuqlar, joylarda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari haqida maroq bilan so'zladilar. Bu esa yosh qalamkashlarni yanada ilhomlantirib yubordi. Yosh iste'dodlar sahnaga chiqib, o'zlarining Vatan, ona, do'stlik, yurtga sadoqat

ruhidagi she'rlarini jo'shib o'qidilar. Nihoyat, g'oliblar ham aniqlandi. Gulmira Hasanova 1-o'rin, Bahodir Rasulov 2-o'rin, Anora Yo'ldosheva 3-o'rinni egallab, mazkur tadbirning shahar bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdilar.

O'z muxbirimiz

Quvnoq, ziyarak muxlislarimiz, sevimli sahifangiz «Quvnoq tanaffus»ning kamnamo bo'lib qolganiga hayron bo'layotgandirsiz?! Oldi yozgi ta'til kunlari bo'lsa... Xavotirga o'rin yo'q. Tadbirlar, maxsus sonlar degandek... Sahifamizga kelgan maktublar, xanda-yu hangomalarning ancha yig'ilib qolgani ham yaxshilikka. Endi ularni «Quvnoq ta'til»da miriqib o'qib borasiz. Umid qilamizki, ta'til hangomalari-yu do'stlaringizdan eshitgan xanda va topishmoqlaringiz bilan sahifamizning yanada qiziqarli chiqishiga o'z hissangizni qo'shasiz.

Dugonalarim bilan maktabimiz qoshida ochilgan turli to'garaklarga qatnayamiz. Men o'zim bir emas, ikkita to'garakka a'zoman.

Tikuvchilik to'garagida tikish-bichishni o'rgansam, yosh ijodkorlar to'garagi mashg'ulotlarida qalamimni charxlayapman. To'garak rahbarimiz Sharofat Boboyevaning saboqlaridan she'r yozish borasidagi tushunchalarim boyib boryapti. Ustozim: «Nasrda ham chiroyli hikoyalarni yozishing mumkin. Uslubing shunga mos kelyapti, iqtidoringni bir sinab ko'r», dedilar. Shundan so'ng «Olxo'ri» deb sarlavha qo'yib, hayotiy taassurotlarimni yozib bordim.

– Bu mitti hikoyacha bo'libdi, uni

«Tong yulduzi»ga yuboramiz, – dedilar ustozim mamnun bo'lib,

Sharofat

opaning maqtovidan ruhlanib, adabiyotga ixlosim yanada ortdi. To'g'risi, avvallari biror kitob o'qisam, qachon tugar ekan, deya varaqlarini sanayverardim. Hozir esa ularni o'zgacha mehr bilan o'qiyapman.

Sevinchoy SHARIPOVA,

Xorazm viloyati, Urganch tumani, Yuqorido'rmon qishlog'idagi 7-maktabning 6-sinf o'quvchisi

Kitobga mehrim ortdi



CHIN DO'ST KIM?

Yaqinda chet el yozuvchisi Billi Maykning «Marko Poloning ajoyib va g'aroyib sarguzashtlari» nomli qissasini o'qib chiqdim. Unda Marko Poloning hamrohlarini, otasi va akasi bilan boshidan kechirganlari aks ettirilgan. Ayniqsa, «Markoning yo'qolib qolishi» hikoyasi menga juda yoqdi. Marko adashib qoladi. O'zini yo'qotmay olg'a intiladi va o'z yaqinlarini topadi.

Bu qissani o'qib, o'zimga inson har qanday vaziyatda ham umidsizlikka tushmasligi, faqat olg'a intilishi, atrofidagilarga yaxshiliklar qilib yashashi lozim ekan, degan xulosa chiqardim. Siz, aziz tengdoshlarimga, uka va singillarimga ham yozgi ta'til kunlarida ko'proq kitob o'qishni maslahat beraman. Zero, kitob eng yaqin, chin do'st. U hayotda o'z o'nimimizni topishimizda yordam beradi.

Yulduz MO'MINOVA



Ukanning tili shirin

MUZQAYMOQNI

– O'yijon, televizorda ko'rsatishdi, muzqaymoqda darmondorilar ko'p bo'larkan.

– Juda to'g'ri.

– Bolalar ko'proq yeb turishlari kerak ekan. Shuning uchun muzlatgichdan muzqaymoq olib yedim.



YEB QO'YDIM

– Osh bo'lsin, qizim.

– Opam bilan singlimga boshqa olib kelarsiz...

– Sen ularnikini ham yeb qo'ydingmi?

– Televizorda muzqaymoqni to'yguncha yeyish kerak, deyishdi, o'zimmikiga to'ymadim-da!..

Gavhar RABBIMOVA,

Samarqand viloyati, Urgut shahridagi 123-maktabning 4-sinf o'quvchisi

RASMLAR KO'RGAZMASI



Qadrli sahifamiz muxlisilari, e'tiboringizga havola qilinayotgan ushbu rasmlar biron taniqli musavvirning mo'yalamiga mansub bo'lsa kerak, deb o'ylayotgandirsiz? Ularga hayrat bilan boqib, avvaliga biz ham shunday o'ylagandik. Lekin bu rasmlarni tengdoshingiz – Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani, Pandiron qishlog'idagi 26-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi Madina Azizova chizganini bilgach, hayratimiz yanada ortdi.

Afsuski, bu qizimiz o'zi haqida juda kam yozibdi. Tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishi, ustozlari, sevimli mashg'ulotlari haqida ham yozib yuborsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

SINGLIM MADINA

Jajji singlim Madina – Shirinlikda yagona. Qosh-u ko'zi munchoqdek, So'zlari dona-dona. Xo'p aqlli va dono, Dadamning «ayg'oqchisi». Buyamning erkatoysi, Onamning yordamchisi. U jilmayib kulganda, Dunyo yorishib ketar. Dadam, oyim quvonchi, Baxtga qorishib ketar.



CHUMOLI

Hammasidan kichkina, Hammasidan ziyoda. Chumolidek mehnatkash, Hasharot yo'q dunyoda!

Muxlisa MIRANOVA, poytaxtdagi 125-maktabning 7-sinf o'quvchisi

Yangi loflar

TARBIYAVIY
SOAT

Tarbiyaviy soatni,
Mushuk bikach olborar.
Kenjasi, – ov qilishni
O'rgating, – deb yolborar.

– Har ishning o'z vaqti bor,
Hatto ovning fursati.
Misol bilan asoslar,
Yo'l-yo'riqlar ko'rsatib.

Odobingiz joyida,
Quvonaman ruhlanib.
Televizor oldida,
Ko'p o'tirmang mixlanib.

Kompyuterning o'rniga,
Kitob o'qing, o'kinmang.
Internetga oshiqcha,
Ixlos qo'yib yukinmang.

To'g'ri so'z to'qmoqdayin
Ranjib qovoq solmangiz.
Qo'shnimiz bolasidek,
Robot bo'lib qolmangiz.

Tursunboy ADASHBOYEV

REKLAMA

Yangi mo'yna do'koni,
Qo'shterkada tiklandi.
Neon lampa o'rnatish
Yonar qurtga yuklandi.

Mangustalar maxsido'z,
Yumronlar teri oshlar.
Arslonga ish tayinlab,
Mushuk yotar yonboshlab.

Shu do'konga yaqinda,
Bir reklama osildi.
Quyoning esi og'ib,
Qon bosimi shoshirdi:

«Tayg'onlarga zuryodmiz,
Ovchilarmiz – sayyormiz.
Tulkilarning terisin,
Shilmoq uchun tayyormiz!»

KALKULYATOR

Bugun yakshanba – bozor,
Qator rasta, do'konlar.
Yeryong'oq sotar hakka,
Tuyaqush yurar donlab.
Muzqaymoqli hujralar,
Ayiqlarga xos pakka.
Narx-navoni belgilar,
Tovus turfa ipakka.
Karkidon atlas sotar
Metrlab-qulochkashlab.
Jirafa to'rt bolasin,
Bozorga keldi boshlab.
Topgan-tutgan mablag'in,
Qopchig'ida keltirgan.
Har biriga ko'yilakka,
Yetar o'n besh metr dan.
To'satdan bitta maymun
Peshtaxtani oralab,
Tugmali apparatni,
Olib qochdi panalab.
Shu mahal Karkidonning
Rangi birdan oqardi.
U ochopat maymunga
Yeb qo'ygudek boqardi.
Maymun kalkulyatorni,
Qo'shqo'llab shoshib g'ajir.
Karki bilmas karrani,
G'ijinib boshin qashir...

SHUDRING

Qarang, qirlarga qarang,
Shudring tushdi, bolalar.
Bo'lib tomchilar zarrang,
Qir adir-u dalalar.

Tongda quyosh chiqquncha,
Yashashar ular arang.
Chanqaganmikan quyosh,
Simirib qo'ydi, qarang?!

Gulasal DOVUDBOYEVA,
Jizzax viloyati,
Jizzax tumanidagi
45-umumta'lim maktabining
3-sinf o'quvchisi

BOBOJON

Buvajonim Karimjon ota Saidovga
bag'ishlayman

Saboq berib poklikdan,
Chin yo'lga boshladingiz.
Kelajakka biz bilan,
Teng qadam tashladingiz.

Niyatimiz pok, nurli,
Shundan qalblar g'ururli.
Oyim, dadamlar bilan
Yashash qanday sururli!

Hamma havas qilgudek,
Mening shunday bobom bor.
Har bir aytar so'zida,
Bir olam hikmat bisyor.

Madinabonu MADAMINOVA,
Toshkent shahar,
Yunusobod tumanidagi
136-bog'cha-maktab o'quvchisi

OSMON ERTAKKA

O'XSHAR

Osmon to'la bulutlar,
Misli paxtadek oppoq.
Shakllari turlicha,
Par to'shagan hammayoq.
Osmon ertakka o'xshar,
Ana ayiq va quyon.
Sakrab yuribdi go'yo,
Olmaxon u yon-bu yon.
Ertak o'qiyman desang,
Sen ham samoga bir boq.
Jonivrlarning osmonda,
O'xshashini top, o'rtog'!

Ozoda BAXSHULLAYEVA,
poytaxtdagi 149-umumta'lim
maktabining 7-«V» sinf o'quvchisi

CHUMOLI

Mittigina chumoli
Yuguradi, yeladi.
Tinim bilmay erta-kech,
O'z rizqini teradi.

Shuning uchun dehqonga,
Qiyoslayman men uni.
Havas bilan zavqlanib,
Kuzataman har kuni.

Asalxon SHOIRXONOVA,
Yuqorichirchiq tumanidagi
9-umumta'lim maktabining 5-sinf
o'quvchisi

LOLA VA LOLA

Ariq bo'yida lola,
Lola yonida Lola.
Bir-biridan chiroyli,
Lola va u qiz bola.

AQLLI QIZ

Ishga ketsalar oyim
Uyda yolg'iz qolaman.
Yumushlarni bajargan,
Sarishta qiz bolaman.

Mushtariy PO'LATOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob
tumanidagi 11-umumta'lim
maktabining 3-«V» sinf o'quvchisi

USTOZ

Bir ulug' zot qoshida,
Doim ta'zim qilamiz.
Olamiz undan ta'lim,
Cheksiz mehrin bilamiz.

O'rganamiz ulardan,
Dunyo ilmlarini.
Bizga baxshida etar,
Barcha bilimlarini.

Barchamizga barobar,
Boshimizni silaydi,
Yetaklab dovonlarga,
Mudom omad tilaydi.


Dildora ABDUVOITOVA,
6-sinf o'quvchisi



«Navbahor» mahallamiz mustaqillik tengdoshi. Ismi jismiga monand bu mahalla tomon yuzlansangiz, bahri dilingiz ochiladi. Chunki bu obod mahallada qilingan ishlar tahsinga sazovordir.

Erta tongda turgan har bir mahalla ahli, avvalo, ishni ko'chani supurib-sidirishdan boshlaydi. Ayniqsa, biror xonadonda to'y yoki ma'raka bo'layotganda mahallamiz yoshlarini bel bog'lab xizmat qilishini ko'rsangiz, zavqingiz keladi. Mahallamiz obodligi, tinch-totuvligida, albatta, mahalla fuqarolari yig'ini diniy va ma'rifiy

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanloviga



ishlar bo'yicha rais o'rinbosari Sanobar opa Eshmurodovaning xizmatlari beqiyos. Bu tinib-tinchimas ayolning aholi o'rtasida olib borayotgan targ'ibot ishlari tahsinga sazovordir. Ayniqsa, mahalla hududida joylashgan 10-4-maktablarning bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan bo'layotgan davra suhbatlari buning yaqqol namunasidir.

Mahallamizning bundan-da gullab-yashnashi uchun bor xizmatimizni ayamaymiz.

Go'zal SHONAZAROVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 7-«D» sinf o'quvchisi

Polvonini e'zozlagan d

Qashqadaryolik Diyor polvon Mahmarasulovning nomini qishloqdoshlari hamon hurmat bilan tilga olishadi. Ikkinchi jahon urushida to Berlingacha borgan Diyor ota jasorati uchun ko'plab orden va medallar bilan taqdirlangan...

Polvon urushdan kelib ham tinmadi. To'ykurashlarda bosh sovrin uchun bellashdi. Chiroqchi tumanining Annaro'z qishlog'i ori uchun maydonlarga chiqdi. Ayniqsa, Chorvador qishlog'ilik Avaz polvonni, Chiyalning Avaz polvonini yiqitganini odamlar hali-hanuz maroq bilan gapirib yurishadi.

Xo'jalikda mexanizator, hisobchi, cho'pon sifatida ishlab, nafaqaga chiqdi. Annaro'zda maktab, yo'l qurilishiga bosh-qosh bo'ldi. Quduq qazdirib, aholini obi-hayotga bo'lgan ehtiyojini qondirdi. Olti o'g'il, uch qizni tarbiyalab, elga qo'shdi.



Annaro'zda kurash bayrami

Yaqinda Diyor polvon Mahmarasulov xotirasiga bag'ishlab o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan viloyat turniri annaro'zlik yoshlar uchun haqiqiy sport bayramiga aylanib ketdi. O'smirlar sakkizta, qizlar esa uchta vazn toifasida gilamga chiqdilar. Qizlardan kasonlik Navbahor va Sofiya Elomonova, O'g'iloy Aminova, o'g'il bolalardan shahrisabzlik Azamat Mingishov, Egamberdi Isrofilov, g'uzorlik Zayniddin Po'latov, Ramazon Temirov, Islombek Jumayev, Asror Yoroqov, Alpomish Shodiye, chiroqchilik Botir Usmonov g'oliblik shohsupasidan o'rin olishdi. Chiyalik Yulduz To'rayeva «Eng jozibali kurashchi» nominatsiyasida g'olib deb topilib, tomoshabinlar olqishini oldi.

— Barchinoydek o'ktam qizlarimiz shijoatidan dilim quvonchga to'ldi, — deydi Normurod aka Diyorov.

Annaro'zda bo'lib o'tgan kurash bayramida qatnashgan sportchilarning barchasi g'olib edi. Chunki ular sportni hayot mazmuni deb biladilar.

Ma'mura MADRAHIMOVA

Boboga munosib nabira

Olti yoshidan karate bilan muntazam shug'ullanishni boshlagan Zaynuraning sport maydonida dadil odimlashiga ota-onasining ko'zi yetmagandi. Mayli, ikki-uch kun borib, sportning tartib-intizomini, mehnat-u mashaaqqatini ko'rsin.

Keyin o'zi bormay qo'yadi, deb o'ylagandilar.

Ammo hammasi boshqacha bo'ldi.

— Teshaboy boboning nabiralaridan biri Zaynura Teshayeva maktabimiz faxri, — deydi uning murabbiyi Oybek Hakimov. — U 7-sinfni tamomladi. Poytaxtda va Navoiy viloyatida bo'lib o'tgan respublika birinchiliklarida shodashoda medallarni qo'lga kiritgan. Zaynura fudokan-karate-do bo'yicha uch karra O'zbekiston chempioni, ikki bor mamlakat kubogi sohibi, bir necha marta viloyat turnirlari g'olibi bo'lgan. Joriy yilda fan olimpiadasining shahar bosqichida qatnashib, ingliz tili fanidan birinchi o'rinni egallashi ham uning tirishqoq va bilimdon ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Farida AKZAMOVA,
Samarqand shahridagi
31-umumta'lim maktabi
direktori



YAXSHI KITOBLAR BOR

Aziz bolalar!

Ijodkor ustozlaringiz sizlar uchun bir-biridan yaxshi asarlar yaratmoqdalar, biz esa baholi qudrat ularni sizga havola etmoqdamiz. Kuni kecha Turob Niyoz akangiz tahririyatimizda mehmon bo'lib, «Ko'ngilga murojaat» nomli she'rlar to'plamini sovg'a qildilar va: «Bu to'g'rida yosh do'stларimni xabardor qilib qo'ysangizlar», deya iltimos qildilar. Biz bu taklifni bajon-u dil qabul qildik. Yangi asarni kim ham tezda o'qib chiqishni xohlamaydi, deysiz?!

Kitob «Noshir» nashriyoti tomonidan 1000 nusxada chop etilgan. Undan shoirming keyingi yillarda yozgan turkum she'rlari va mag'zini chaqsa arziyadigan yuzdan ortiq to'rtliklari o'rin olgan.

Qizlarga atalgan she'rida shunday deb yozadi:

Agar bu Vatanni desak bir chaman,
Ular bu chamanning mas'um gullari.

Yaxshi ta'rif.

Yoki «Vatan» she'ridagi satrlar ham sizni befarq qoldirmaydi.

Qasd aylasa kimki senga,
Dushman erur o'shal menga.
Do'stman, seni chin sevganga,
Vatan, sensiz yashab bo'lmas!

Daraxtlar haqida bitgan she'ri ko'ngilga gulday yoqadi.

Daraxtlarni yaxshi ko'raman,
Daraxtlarsiz bu dunyo cho'ldir.

Yaxshi-a?!

Siz ham bu kitobga oshno tutinsangiz, undan bir olam bahra olasiz. Shu asnoda biz shoirning to'rtliklaridan ba'zi birlarini sizga havola etishni lozim topdik.

TO'RTLIKLAR

Ko'nglim!
Sochi uzun qizlar qolmagay nahot,
Nahot ular «Qizil kitob»ga kirgay?!
Nahotki ularni kelgusi avlod
Faqat kinolarda, kitobda ko'rgay?!

Ko'nglim!
Agar ozodlikning yetsak qadriga,
Baxtiyor yashaymiz Vatan bag'rida.
Buning isbotidir shu bugungi kun,
Kecha yashar edik zulmat qa'rida.
Ko'nglim!
Til ham parvarishga, mehrga zordir,
E'tiborsiz qolsa, u abgor, xordir.
Uni qattiq sevir, avaylagan xalq
Boshida har doim baxt qushi bordir.

Ko'nglim!
Mehrda onadan kam emas ota,
Bolam deb jonini beradi hatto.
Mehr-muhabbatini qilmaydi oshkor,
Farzandim yashasa, deydi, bexato!

Turob NIYOZ

SHAHNOZA tayyorladi

TOVUSH

Tovush balandligi havoning tebranish kuchiga bog'liq. Agar tebranish yuqori bo'lsa, tovush baland, past bo'lsa, tinchroq bo'ladi. Tovush balandligi detsibellarda o'lchanadi.

TOVUSHNING BALANDLIGINI BILASIZMI?

Kosmik raketalarining uchishi
150-190 detsibel

Reaktiv layner parvozi

120-140 detsibel

Motosikl harakati
70-80 detsibel

Shipshitiq gapirish
20-30 detsibel

To'kiyotgan barglar
20 detsibel



TANGA ROHAT ICHIMLIK

Mana, aziz bolajonlar, yozning issiq kunlariga ham yetib keldik. Bunday pallada turli mevalardan muzdekkina sharbat tayyorlab, ishdan horib-charchab kelgan ota-onangizni, oila a'zolaringizni xushnud etsangiz, ayni muddao bo'ladi. Shu o'rinda olcha, gilos, o'rik hamda malinalardan sharbat tayyorlashni eslatib o'tishni yana bir bor lozim topdik. Avvalo, mevalarni muzdek suvda yuvamiz, bir kilocho mevani sirli idishga solib, ustidan sovuq suv quyamiz. Yarim stakan shakar ham solish yodingizdan chiqmasin. Sharbatning qaynab chiqishi bilan olovni pastlatib, yarim soatcha qaynating. Chunki mevalar juda ham ezilib ketmasligi lozim. Shunda uning rangi tiniq chiqadi.

Yana bir narsaga e'tibor bering, sharbatning juda ham shirin bo'lmasligi kerak, aks holda, ishtahani bo'g'ishi mumkin. Biroz nordonroq ichimlik esa ishtaha ochadi hamda chanqog'ingizni bosadi.

«CHALOB» ICHMABSIZ...

2 litrcha shaqillab qaynagan suvni sovutib qo'yamiz. 2 yoki 3 dona qaynatilgan tuxum, bodring, shivit bargi, 100 yoki 150 gramm pishirilgan mol go'shti, ikki-uch dona qaynatilgan kartoshkani somoncha shaklida to'g'raymiz-da, sovutilgan holda suvga barcha masalliqni solamiz. Ta'bg'a ko'ra tuz solib, yaxshilab aralashiramiz. Muzlatgichga qo'yib, «chalob»ni sovuq holda iste'mol qilishni tavsiya qilamiz.



Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi

Sulaymonga dadasi Xalil ota ko'p hunarlarini o'rgatgan, ammo qo'li bo'shadi deguncha, rasm chizishni boshlaydi. Onasi Munisa aya o'g'lining rassom bo'lishini istaydi. Ammo dadasi uni dehqonchilik ishlari bilan shug'ullanishga undaydi. Do'sti Ahmad ham unga havas qilib, rasm chizishga berilib dala ishlarini tashlab qo'ydi. Bundan achchiqlangan Xalil ota:

ORZULARI USHALGAN RASSOM



Dalada ishlasang o'zingga foyda, ham sog'lom bo'lasan, ham dasturxonimizda baraka bo'ladi, - deya uni dala ishlariga ko'mib tashlardi. Ahmadning dadasi shaharda ishlagani bois, ular shaharga ko'chib ketishdi.

U Sulaymonning chizgan rasmlaridan bir-ikkitasini olib ketgandi... Ularni rassom ustoziga ko'rsatganida, u kishi hayratga tushdi. Ustozi boshchiligidagi rasmlarni shaharda o'tkaziladigan tanlovga berib, Sulaymonning ko'nglini xushnud etmoqchi bo'lishdi. Vaqti kelib, Sulaymonning rasmlari respublika tanlovda birinchi o'rinni olganini oynayi jahon orqali hamma ko'rdi. Buni eshitib, Sulaymonning ota-onasi hang-u mang bo'lib qolishdi. Xalil ota o'g'lining ra'yini qaytarganidan afsuslandi...

Shahnoza TURSUNOVA,
poytaxtimizdagi 2-sonli akademik litseyning 3-bosqich talabasi

YARASHMAGAN KOLLAR (Parodiya)

—Menga xolavachchasan,
Der xolamning o'g'li Xol.

(«Qarindoshlar» she'ridan)
* * *
Xol futbolga ustamas,
To'p tepolmas uddalab.

(«Xol» she'ridan)
* * *
Xol hammaning jig'iga
Tegishni xush ko'radi.

(«Qalaysan, hazilkash?!» she'ridan)
* * *
Yashardi shu qishloqda
Nor va Xol ikki o'rtiq.

(«Sehri ko'za» ertagidan)
Sodiqjon INOYATOVning
«Onamni sog'inib» she'rlar to'plamidan

Muborak bo'lsin to'plam!
Varaqladik lol bo'lib.
Undagi so'zlar biram
Yarashibdi xol bo'lib.

O'qisang, dil yozilar,
She'rlari «besh» baholi.
Ammo husn buzilar
Ko'payib ketsa xoli.

Xudoyberdi KOMILOV,
Samarqand viloyati, Urgut tumani



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Feruza SOYIBJON qizi,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manziliimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.

Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.

ISSN 2010-6092
Adadi - 65218
Buyurtma N: J 1940